

JORJ ORUELL “1984” NOMLI ROMANI

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi,
mehnat sohasini boshqarish fakulteti uslubchisi*

Farxodova Mahliyobonu Xusanjon qizi.

mahliyobonufarxodova@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu sahifada ingliz yozuvchisi JorJ Oruellning mashhur romanlaridan biri “1984” yil deb nomlangan romanidagi obrazlari va ularning tutgan o’rni haqida ma’lumot berilgan. Ushbu roman orqali yozuvchi insonlarni ilmga bo’lgan munosabatini rivojlantirish va ma’naviyatlilik, mafkuraviylikning qanchalar muhim o’rinda ekanligini bu esa kelajak avlodga o’z ta’sirini ko’rsatishni ta’kidlangan.

Kalit so’zlar: Jorj Oruell, Newsweek Jurnali, BBC, Yevropadagi oxirgi inson, Karim Bahriyev, 1984 nomli roman, 5 ta muhim tashabbus

Kirish. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust sanasida ko’plab ziyoli vakillar, fan arboblari, adabiyotshunos olimlar-u ijod vakillari bilan davra suhbatini olib borgan. Shunda ushbu purma’no fikrlarini keltirib o’tgan edilar: “ Adabiyot va san’atni, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Bizning havas qilsa arziydigan tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonamanki, nasib etsa , havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz, san’atimiz ham albatta bo’ladi”.¹ Yuqorida keltirilgan fikrlarda ayni haqiqat mujassam. “Va men ishonamanki, nasib etsa , havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz, san’atimiz ham albatta bo’ladi.” Mana shu satrlarga amal qilgan holda, havas qilsa arziydigan adabiyot yaratishda albatt tarjima asarlarning o’rni beqiyosligini

¹ Sh. Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust Senat yig’lishi nutqida.

alohida ta'kidlagan bo'lar edim. Hozirgi kun yoshlar dunyoga chiqish uchun til bilishlari va G'arb va Sharq madaniyati va adabiyotini yaxshi bilishlari kerak.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.²

Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo'ladi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ushbu 5 tashabbus xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Yig'ilishda bu tajribani O'zbekistonning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi.

² Sh. Mirziyoyev 2019 –yil 19-mart videoselektor yig'ilishi nutqida.

Brinchi Prezidentimiz I A. Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, har qanday sivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir. Dunoyga chiqish uchun esa albatta madaniy hayot, badiiy adabiyot ko'pik vazivasini bajaradi.

Mashhur ingliz yozuvchisi va jurnalisti Jorj Oruell uning asl ism Aric Arthur Blair. U ko'plab o'zining asarlari va romanlari bilan shuhrat qozongan. Adib o'z asarlari: "Ruhoniyning qizi", "Yashasin anjir", "Havo kerak", "Molxona", "1984" kabi ramonlari bilan nafaqat ingliz adabiyoti, balkim butun dunyo adabiyotini hayratga solgan. Ayniqsa adibning "1984" ramoni keng o'quvchilar ommasining ko'nglidan joy oldi.

Ushbu roman 1949 – yilda nashr etilgan bo'lishiga qaramasdan haligacha dunyoning har bir maskanida o'zining kitobxonlariga ega, shu jumladan "1984" nomli roman 2018 – yil O'zbekiston Respublikasida ilk marotaba o'zbek tilida Karim Bahriyev tarjimasida ommaga taqdim etildi. Bu roman o'zbek kitobxonlarini ham bee'tibor qoldirmadi. Ushbu g'ayrixayoliy roman o'zbek xalqi orasida ham o'z muxlislarini topdi.

Romanning voqealari 1984 – yilda bo'lib o'tadi. Roman bosh qahromoni Uinston Smitning hayotiy chekinmalari va o'sha davrdagi hukumat tuzumi haqida bayon qiladi. Uinston Londonda tug'ilgan 39 yoshli Haqiqat vazirligida, hujjatlar bo'limida ishlaydigan xodim bo'ladi. U hukumat xizmatchisi bo'lishiga qaramasdan, u ich-ichdan bu tuzumga qarshi chiqadi. Biroq o'zining etirozlarini erkin bildira olmaydi totalitar tuzum sababli, hatto hukumatga qarshi bo'lgan o'y – fikrlarini xayoliga keltirishga ham qo'rqadi. Agar u fikrlay boshlasa u fikriy jinoyatchilikda ayblanishini bilardi va fikriy jinoyat o'limga olib kelmaydi: fikriy jinoyatning o'zi o'limdir deb aytardi. Uinston partiya hukmronligi ortiq davom etmasligi va bu partiya insonlarni ilmsizlikka, ongsizlikka boshlayotganini bilardi. Buni o'sha "Haqiqat vazirligi"ning peshtoqidagi shiordan ham bilsa bo'ladi:³

URUSH – TINCHLIKDIR

³ Jorj Oruellning "1984" nomli romonidan keltirilgan shior.

ERK – QULLIKDIR

BILIMSIZLIK – KUCHDIR.

Ko'rinib turibdiki, bunday shior har qanday millatni, xalqni jaholatga yetaklaydi. Uinstonning so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, "ongli ravishda ongsizga aylanish va, ayni paytda, o'zingni aldayotganingni anglamaslik"dir. Hukumat yuqoridagi shiorga o'sha davr millatini e'tiqod qilishga dav'at qilardi, bu esa kelajak avlodni ongsiz qilib tarbiyalayotgandi. Albatta, ongsiz jamiyatni har qanday holatda boshqarish va istagan tomonga yo'naltirish mumkin.

Uinston mana shu holatlarni ich ichidan qoralardi. Ketrin – bu bosh qahromonning rafiqasi. Ketrin baland bo'yli, tik qomatli mallasoch juvon edi. Uning aniq – tiniq, burgutona chexrasi olijanob ko'rinardi, ammo tushunib qolardingki, bu chexraning ortida boshqa hech narsa yoq edi – deb ta'riflaydi Uinston. Ular deyarli 11 yil avval ajrashishgan.

Julia – bu bosh qahromonning sevgilisi. U 26 yoshdagi qiz "Josuslar"da otryad boshlig'I bo'lgan, haftada uch marta "Seksga qarshi yoshlar ligasi"da ko'ngilli sifatida va Haqiqat vazirligining "Adabiyot bo'limida" ishlardi. Unda jirang sochlari, jigarrang ko'zlari, qora kipriklar, qip-qizil lablari bor edi. Uning shiori "Agar mayda qoidalarga qat'iy rioya qilsang, katta qoidalarni buzish mumkin bo'ladi" deb aytardi.

O'Brayn – u ichki partiya a'zosida katta lavozimli kishi edi. U baland bo'yli, bo'yni yo'g'on, dag'al yuzli miqti erkak edi. Uning qiyofasi vaximali bo'lsada, istarasi sovuq emas edi. Bu qahramon Uinston bilan Juliani "Birodarlik" safiga qo'shadi va o'sha qo'shin to'g'risida qo'llanma kitob beragan bo'lsada ularni hibsga olishga yordam beradi.

Janob Charrington- noyob buyumlar sotiladigan do'koni bo'ladi. Uinston u yerdan o'ziga yoqqan noyob buyumlarni sotib olardi hatto Julia va o'zi uchun o'sha do'konning ichidan ijaraga xona ham oladi. Biroq janob Charrington ham ularni hibsga oladi chunki u aslida Fikr politsiya xodimi bo'ladi.

Saym – bu Uinstonning "Tadqiqot bo'limida"gi oshnasi bo'ladi. Saym filolog, Yangi til bo'yicha mutaxassis va Yangi til lug'atining 11 nashri ustida ishlayotgan

kattagina jamoa a'zosi edi. U pakana, mayda, qo'ng'iroq soch va katta bo'rtgan ko'zlari bor edi.

Tom Parsons – bosh qahramonning “G'alaba” uidagi qo'shnisi va bir joyda ishlaydigan hamkasbi edi. U 35 yoshlardagi o'rta bo'yli, malla sochli, qorin qo'ygan va qurbaqabashara qilib tasvirlangan. U o'smir bolardek shaxdam harakat qilardi. Uni keyinchalik fikriy jinayatlikda ayblashadi bunga uning qizi sabachi bo'ladi.

Amplfort – u ham Haqiqat vazirligining xodimi edi keyinchalik u shoirning “iltijo” so'zi uchun ayblab hibsga olishadi va bosh qahromon bilan bitta hibsonada o'tiradi. U yong'igacha o'sib brogan tuklari yuziga qaroqchilarga ko'rk bergan, biroq ulkan, beso'naqay gavdasi va asabiy harakatlari qaroqchilarnikiga o'xshamasdi deb tasvirlangan.

Martin – bu O'Brayenning xizmatkori bo'yi past, sarg'ish yuzli qilib tasvirlangan. Emmanuel Goldsteyn – romanda xalq dushmani sifatida tasvirlangan. Uning lo'ppi oq sochlari ostidagi quruqqina juhudcha aft- angor, echkisoqol, aqlli va, shu bilan birga, odamni g'ijintiradigan tushunib bo'lmas yuzi va uchiga ko'zoynak qo'ndirilgan qirrador uzun burni bor edi. Uning o'zi ham, ovozi ham qo'ynikiga o'xshardi deb ta'rif berilgan. U “Birodarlik”ni tashkil qilganlikda qoralanardi.

Romanda bu qahromonlardan tashqari boshqa obrazlar ham keltirilgan. Masalan; Tom Parsonsning rafiqasi Parsons xonim va uning bolalari, Uinston bilan hibsonada birga bo'lgan maxbuslar, maxbuslardan biri iyaksiz odam deb tasvirlangan, yana Jons, Aronson va Rezerford, ular xoinligi uchun qatl etilgan partiyaning uch sobiq a'zosi, Uinston ularni aybsiz jazolangan deb o'ylardi. Yozuvchi, qaysidir ma'noda ushbu g'ayrixayoliy romani bilan insonlarni ilmi, ma'rifatli bo'lishga, fikrlashga, erkinlikni, tinchlikni qadrlashga, bir millatning barkamol bo'lishida tilning, tarixning muhim ahamiyatili ekanligini ta'kidlaydi.

Uning “1984” nomli romani “Newsweek” jurnali tomonidan tuzilgan “Insoniyat tarixidagi eng zo'r 100 asar” reytingida ikkinchi, BBC tomonidan tuzilgan “Insoniyat

tarixidagi eng zo'r 200 kitob" reytingida sakkizinchi o'rinni egallagan. Uning dastlabki nomi "Yevropadagi oxirgi inson" bo'lgan.

Xulosa va takliflar : Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda barcha O'zbekistonlik yoshlarni ilmi, bilimli va keng dunyoqarashli, musqatil fikrlay oladigan shaxs bo'lib yetishlari uchun davlatimiz rahbari tomondan ko'plab imkoniyatlar berilmoqda, shulardan biri sifatida yuqoridagi 5 ta muhim tashabbusning birinchi tashabbusida asosida yoshlarda bolalik chog'laridan boshlab ularda kitobga mehr uyg'otish maqsadida turli xilda loyihalar amalga oshirilmoqda.

References

- 1."1984" nomli Jorj Oruellning romani
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Правда Востока" nashri portal.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/jorj-oruell-ijodi-ehtiyoji-nazar-eshonqul-jorj-oruell.html>
4. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
5. Rahmonova, S. (2023). YANGI O 'ZBEKISTONDA MA'NAVIIY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
6. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD-UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
7. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
8. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).